

O'zbekiston Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zosi Galina Pavlovna Matviyevskaya 95 yoshida vafot etdi

Fan tarixi sohasi og'ir judolikka uchradi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zosi, fizika-matematika fanlari doktori, professor Galina Pavlovna Matviyevskaya 95 yoshida Orenburg shahridagi uyida vafot etdi.



G. P. Matviyevskaya 1930-yilda Dnepropetrovsk (hozir Ukraina Respublikasining Dnepr shahri)da tug'ilgan. 1954-yilda Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) universitetining matematika mexanika fakultetini tamomlagan, 1959-yilda SSSR Fanlar akademiyasi (hozirgi Tabiatshunoslik va Rossiya texnika Fanlar tarixi akademiyasi)ning institutida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. O'sha yili u O'zbekiston Fanlar akademiyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutiga o'rta asrlar Sharqidagi fanlar tarixi bo'yicha tadqiqotlarni kuchaytirish uchun taklif qilindi. 1968-yilda u doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi (ilmiy maslahatchisi - akademik S. X.Sirojiddinov). U B.A.Rozenfeld bilan birgalikda jahon fondlarida saqlanayotgan arab tilidagi matematika va astronomiyaga oid qo'lyozmalar katalogini tuzgan, shogirdlari bilan birgalikda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutidagi matematik qo'lyozmalarining tavsifini amalga oshirgan.

G.P.Matviyevskaya yurtimizdan yetishib chiqqan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Shamsiddin Samarcandiy va Mirzo Ulug'bek, Samarcandda faoliyat olib borgan Qozizoda Rumiy, Jamshid Koshiy va boshqa olimlarining ilmiy merosini o'rganish va targ'ib qilish, shuningdek, ilm-fan tarixi bo'yicha mutaxassislar tayyorlashdagi xizmatlari uchun Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti (1974), "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi" faxriy unvoni (1980) bilan taqdirlangan. U O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi muxbir a'zosi (1984), so'ngra O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi (2000) etib saylangan edi.

G. P.Matviyevskaya ko'ptilli olma edi - u lotin, ingliz, nemis, fransuz va arab tillarini bilgan, YUNESKO tomonidan tabiiy fanlar tarixi bo'yicha yirik mutaxassis sifatida tan olingan va Xalqaro fanlar tarixi akademiyasining (Parij) haqiqiy a'zosi etib saylangan, U al Xorazmiy, Dekart, Beruniy, Ulug'bek,

V.I.Romanovskiy, Abdurrahmon as-So'fiy haqida kitoblar nashr ettirgan, sharqshunoslik sohasiga ilmiy to'plamlar tuzuvchisi va bosh muharriri bo'lgan, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning 1200 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan yubiley (1983) tadbirlarini o'tkazishda faol ishtirok etgan.

O'zbekistonda sharqshunoslik fanining rivojiga ulkan hissa qo'shgan atoqli olim Galina Pavlovna Matviyevskayaning yorqin xotirasi qalbimizda hamisha saqlanib qoladi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi jamoasi nomidan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur hamdardlik bildiramiz.